



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 1-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish

Saydaliyeva Gulirano Akramjanovna

University of Economics and Pedagogy NOTM Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

saydaliyevag@gmail.com

Siddiqjonova Ismigul Isojon qizi

University of Economics and Pedagogy NOTM

“Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)” yo'nalishi 1-kurs talabasi

ispromise07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. SI vositalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish va til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada shaxsiylashtirilgan ta'lim, tezkor fikr-mulohaza berish, virtual suhbatlar orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va motivatsiyani oshirish kabi imkoniyatlar yoritiladi. Shuningdek, SI cheklovlari va o'qituvchining ta'limdagi yetakchi o'rni ham muhokama qilinadi. Tadqiqotlar SI texnologiyalaridan maqsadli foydalanish xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xorijiy tillar ta'limi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari, interaktiv ta'lim, til o'rganish

Abstract: This article analyzes the use of artificial intelligence (AI) technologies in foreign language teaching. AI tools help make the learning process more effective, adapt to learners' individual needs, and support language skill development. The article discusses AI's main benefits, including personalized learning, instant feedback, conversational practice, and increased learner motivation, as well as certain limitations and the essential role of the teacher. The study shows that purposeful use of AI can enhance the quality of foreign language education.

Keywords: artificial intelligence, foreign language teaching, educational technologies, digital learning, interactive teaching, language skill development.

Kirish: Bugungi kunda sun'iy intellekt hayotimizning barcha jabhalariga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasida ham u taklif qilayotgan imkoniyatlar talaygina, ammo ulardan samarali foydalanish ham ma'lum bir ko'nikma va malakani talab qiladi. Xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalari individual o'quv ehtiyojlariga moslashish, til ko'nikmalarini rivojlantirish, tezkor fikr-mulohaza berish va virtual muloqotlar orqali motivatsiyani oshirish kabi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, uning cheklovlari ham mavjud bo'lib, o'qituvchining ta'lim jarayonidagi yetakchi roli katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli va oqilona foydalanish xorijiy tillarni o'qitish sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.



Sun'iy intellekt texnologiyalarini shaxsiylashtirilgan ta'lim jarayoniga tadbiq etish bu sohada inqilob yaratdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu texnologiyalar har bir o'quvchining darajasini aniqlab, ularga moslashtirilgan mashq va vazifalar tanlaydi. Masalan, Grammarly yoki Duolingo kabi platformalarda grammatika yoki talaffuzdagi xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish imkoniyati mavjud. Bu jarayon nafaqat o'quvchiga motivatsiya beradi balki unga o'z-o'zini tekshirish va o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi, shuningdek, o'qituvchiga vaqtni samarali ishlatishga imkon beradi.

SI asosidagi chatbotlar va interaktiv platformalarni ta'lim tizimiga joriy etish bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, o'quvchilar o'zlari istagan vaqtda suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa talaffuz va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natija beradi va talabalarni qo'llab-quvvatlashni soddalashtiradi, natijada ularning o'qishda qolish darajasi oshadi, tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi va har bir talabani o'ziga xos ehtiyojlari va o'qish sur'ati bo'yicha individual tarzda yondashishga imkon beradi. Masalan, "Alexa" kabi virtual yordamchilar til o'rganish jarayonida o'quvchiga savollar berish, hikoyani so'zlab berish yoki tezkor muloqot mashqlari orqali faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yin elementlarini qo'shish orqali chatbotlar muloqot jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Masalan, Duolingo ilovasi o'quvchilarning xatolarini aniqlab, ularga ballar berish, yuraklarni tiklash va turli darajalarni bosib o'tish imkonini yaratadi, bu esa o'quvchilarni faol o'rganishga undaydi. Shu tarzda, chatbotlar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Umuman olganda, chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida yaratilgan interaktiv muhit til o'rganishni yanada qiziqarli, individual va samarali qiladi, bu esa zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, ularni samarali va to'g'ri qo'llash o'qituvchi nazoratini talab qiladi va jonli muloqot o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi sun'iy intellektidan foydalanish jarayonida yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va nazorat qiluvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganishda o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari tayanib qolmasligi, balki uni yordamchi vosita sifatida qabul qilishi muhimdir.

Inson bilan bevosita muloqot o'quvchilarning emotsional holatini tushunish, ularning qiyinchiliklarini aniqlash va individual yondashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari texnik jihatdan mukammal bo'lsa-da, ular o'quvchining hissiy holatini to'liq anglay olmaydi. Shu sababli o'qituvchining bevosita muloqoti, rag'batlantirishi va fikr-mulohazasi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qoladi.



Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga sun'iy intellektdan axloqiy va akademik halollik tamoyillariga rioya qilgan holda foydalanishni o'rgatishi lozim. Masalan, sun'iy intellektdan topshiriqlarni to'liq bajarib beruvchi vosita sifatida emas, balki bilimni mustahkamlovchi va mashq qilish uchun yordamchi resurs sifatida foydalanish muhimligini tushuntirishi zarur. Shu orqali o'quvchilarda mas'uliyatli yondashuv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt va o'qituvchi faoliyati o'zaro uyg'unlashgan holda ta'lim jarayonida qo'llanilgandagina kutilgan natijani berishi mumkin. O'qituvchi nazorati va inson bilan bevosita muloqot sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi imkoniyatlarini to'ldiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, tezkor fikr-mulohaza berish hamda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish imkonini yaratadi. Biroq sun'iy intellektning ta'limdagi samaradorligi uni to'g'ri va maqsadli qo'llashga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining nazorati va insoniy muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasidagi roli yanada kengayishi kutilmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar yanada takomillashib, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, sun'iy intellektdan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va inson omiliga asoslangan yondashuvni saqlab qolish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

1. Shunday ekan, kelajak ta'lim tizimida sun'iy intellekt va o'qituvchi faoliyati o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanishi zarur. Insoniy muloqot, pedagogik tajriba va texnologik imkoniyatlarning birlashuvi xorijiy tillarni o'qitish jarayonini yanada samarali, sifatli va barqaror qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev, N. (2021). "Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni". O'zbekiston pedagogik axborot markazi jurnali, 2(10), 45–50.
2. Karimova, M. (2020). Chet tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
3. Qodirova, D. (2023). "O'zbekistonda chet tillarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari". Filologiya va tillarni o'qitish jurnali, 1(3), 78–83.
4. Prichi Goyal, Nitish Kumar Minz, Ayushi Sha (December, 2023)
5. Chat-bots and virtual assistants in education: enhancing student support and engagement. Education Unleashed: AI Era (pp.89-107)
6. Duolingo. (2023) How Duolingo uses AI to personalize language learning. Duolingo official blog.